



O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIGA TASHRIFI BOSHLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayonning taklifiga binoan 13-yanvar kuni rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.



Abu-Dabi xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Birlashgan Arab Amirliklari vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy

qorovul saf tordirdi, ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi.

Tashrif dasturiga muvofiq 14-yanvar kuni O‘zbekiston Prezidenti “Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi” xalqaro sammitida ishtirok etadi.

BAANing yetakchi tashkilotlari, kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashuvlar ham rejalashtirilgan.

15-yanvar kuni oliy darajadagi muzokaralar bo‘lib o‘tadi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI TASHKIL ETILGANING 33 YILLIGI HAMDA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN HARBIY XIZMATCHILAR VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz mudofaa qudratini oshirish, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini yuksaltirish, professional milliy armiyani shakllantirish, davlat xavfsizligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta‘minlashdagi katta xizmatlari, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi ibratli faoliyati, sharaflari va muqaddas burchini bajarishda mardlik va jasorat ko‘rsatgani, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qo‘shgan munosib hisssasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Mardlik” ordeni bilan

Dedaxonov Musoxon Alyorovich — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi

Ismoilov Baxtiyor Axmadjonovich — Farg‘ona viloyati prokurori

Rasulov Farrux Sadulloevich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandiri

Sayipov Bektosh Raximovich — Qashqadaryo viloyati prokurori

Toshqorayev Olim Eshmo‘minovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism bosh serjanti

Umurzakov Sharof Kuchiyevich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi xizmat boshlig‘ining o‘rinbosari

Egamberdiyev Muzaffar Eminovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi direktori

Egamyorov Farxodbek Abdumalikovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandirining o‘rinbosari — bo‘lim boshlig‘i

“Do‘stlik” ordeni bilan

Pirmatov Alisher Ashurmatovich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy devoni boshqarma boshlig‘i

“Jasorat” medali bilan

Akramov Abbasjon Axtam o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi

Irgashov Baxtiyor Erkinovich — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi muhim ishlar bo‘yicha katta tekzor vakili

Isakov Alisher Raxmatullayevich — Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi qutqaruv otryadi guruh qutqaruvchi-yo‘riqchisi

Muxitdinov Islombek Zafarbek o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism otryad komandiri

Suyarqulov Ravshanbek Suyarqul o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism vzvod komandirining o‘rinbosari

Toshmatov Zafarbek Anvarovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism eskadrilya komandirining o‘rinbosari

Davomi 2-beta

O‘ZBEKISTON VA BAA O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIK UFQLARINI KENGAYTIRMOQDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-yanvar kuni rasmiy tashrif bilan Birlashgan Arab Amirliklariga keldi. Tashrif doirasida Abu-Dabi va Dubay shaharlarida qator uchrashuv va tadbirlar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Davomi 2-beta



Davlat dasturi loyihasi muhokamada

KATTA YO‘LNING KATTA TASHVISHLARI

YOXUD PREZIDENTIMIZNING “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI “ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI”DA AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA DAVLAT DASTURI VA UNI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA”GI FARMONI LOYIHASINI O‘QIB

Bir tovuqqa ham suv kerak, ham don. Bir ro‘zg‘orni obod qilguncha ne-ne mashaqqatni boshdan kechiradi odam degan yaratiq. Qancha-qancha to‘fonu to‘zonlar bilan yuzlashadi olis safarga chiqqan karvon. Katta yo‘lga otlangan millat-chi, mamlakat-chi, davlat-chi? El-yurt qayg‘usida yashagan buyuk sarkarda Amir Temur qanday azoblar evaziga yaratgan ekan tengsiz saltanatni? Millatni bahor nasimlaridan bahramand etish behad qiyin bo‘lgan hamma davrlarda ham.

Ayniqsa, bugun — olam mezon tolalaridek qaltirab turgan nozik zamonada.

Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtidorga kelganidan buyon qanday qiyinchiliklarga duch kelgani va bu to‘siqlarni nimalar evaziga yengib o‘tayotganini o‘zi biladi, Xudo biladi, albatta. Bizning bilganlarimiz shuki, u kishi mamlakat Prezidenti lavozimiga saylangan paytda O‘zbekiston zaminida o‘nlab uchi-kechi yo‘q jumboqlar kalavadek chugalab yotardi.

Davomi 3-beta

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

MARD O‘G‘LONLARI BISYOR EL

Harbiy xizmat yurtning har bir o‘g‘loni uchun sharaf. Bolaligida yog‘och “qurol” yasab, o‘zaro musobaqalashmagan, harbiy-vatanparvarlik ruhidagi filmlardan ruhlanib, “Men ham katta bo‘lsam, albatta, vatan himoyachisi bo‘laman”, demagan inson topilmasa kerak. Yurtga muhabbat, uning sarhadlarini himoya qilishdek muqaddas burchga tashnalik hissi qalblarni aynan beg‘uborlik chog‘larimizdan zabt etib ulguradi. Bu bejiz emas, albatta.

Keyingi yillarda mamlakatimizda milliy armiyamizni isloh qilish, uning salohiyatini har jihatdan rivojlantirish yo‘lida ulkan ishlar qilindi. Yangi O‘zbekistonni qurishda yurtimizda harbiy xizmatning nufuzini oshirish, yoshlar qalbida armiyamiz bilan faxrlanish tuyg‘usini va vatan himoyachisi bo‘lishdek olijanob kasbga hurmat hissini kuchaytirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli harbiylik libosini kiyib, yurtga xizmat qilishga intilayotgan o‘g‘lonlar safi tobora kengayib bormoqda.



Davomi 5-beta



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANING 33 YILLIGI HAMDA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN HARBIIY XIZMATCHILAR VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

Utegenov Dauran Aymuratovich — Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili
Sharipov Javlonbek Hakimjon o'g'li — Toshkent shahri Bektemir tumani bo'yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi patrol-post xizmati inspektori

"Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan

Abdullayev Nodirjon Abditolib o'g'li — Toshkent viloyati prokuraturasi bo'lim boshlig'i
Axmedov Bahridin Hoshimovich — Samarqand harbiy sudining raisi
Bakirov Shokir Kuchkarovich — O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad katta haydovchi-qutqaruvchisi
Dadaxonov Xamidullo Vaxobovich — Andijon viloyati Izboskan tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori
Djumabayev Baxrom Kurbanaliyevich — Toshkent viloyati Nurafshon shahar ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori
Jumabayev Sherzod Avazovich — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism seksiya komandiri
Kamalov Abdurasul Anvarovich — O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad katta yo'riqchi-qutqaruvchisi
Minajov Reybax Oteuliyevich — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish koloniyasi boshlig'ining o'rinbosari
Mirzaalimov Nishanmurod Muxtarovich — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi
Parmanov Abdumalik Pattoyevich — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi
Pozilov Odil Samadovich — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari harbiy qism qorovul boshlig'i

Rejepov Bekpolat Mamitovich — O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi
Soatov Fazliddin Sunnatilayevich — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i
Sultonov Oybek Sultonboyevich — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi kadrlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
Tilabov Bahodir Samandarovich — O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bo'limi bosh serjant yordamchisi
O'sarov Obidjon Komiljon o'g'li (marhum) — O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi
Xudjaqulov Dilmurot Panjiyevich — Farg'ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari — ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati boshlig'i
Xo'jamqulov Abdixamid Musayevich — Surxondaryo viloyati Bojxona boshqarmasi bo'lim boshlig'i
Shafiyev Renat Rustamovich — O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi markaz boshlig'i

"Sog'lom turmush" medali bilan

Karimova Saidra Mo'xtar qizi — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism bo'lim katta ofitseri
Xolbekov Xaytbek Oybek o'g'li — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi boshqarmasi bo'lim inspektor-psixologi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri, 2025-yil 13-yanvar

"Shuhrat" medali bilan

Artikov Sherzod Baxtiyarovich — Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani prokurorining o'rinbosari
Jumayev Sharof Norchayevich — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Qashqadaryo viloyati boshqarmasi surishtiruvchisi
Zaripov Maratjon Rizayevich — O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh komandiri
Qambarov Botirjon Shermaxammatovich — Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori
Maxkambayev Abdulla Abdisamatovich — Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi texnik ta'mirlash qismi boshlig'i
Po'latova Azizxon Murot qizi — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh katta ofitseri
Saidov Sardor Saydullayevich — O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism seksiya komandiri
Sanayev Begzot Yusubovich — Sirdaryo viloyati Shirin shahar ichki ishlar bo'limi boshlig'i
Sultanova Jamila Mashariyovna — Xorazm viloyati ma'muriy sudining raisi
Toshpulatov Sulton Eshniyozovich — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash boshqarmasi bo'limi haydovchisi
Usmonov Shuxriddin Xoliqovich — Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Qarshi shahar favqulodda vaziyatlar bo'limi katta usta-qutqaruvchisi

SH.MIRZIYOYEV

Nuqtayi nazar

DAVLAT SUVERENITETI VA YURT TINCHLIGINI ASRASH – MUQADDAS BURCHIMIZ

Har bir yilga o'ziga xos nom berib, shunga mos ravishda davlat dasturi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi xalqimizni ezuq maqsadlar yo'lida jipslashtirish, yurtimizni taraqqiy ettirishda muhim omil bo'layotir.

Shu kunlarda keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinayotgan davlat dasturi loyihasida ham yurtimizda jadal bilan amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish, xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirish bilan bog'liq muhim chora-tadbirlar, keng qamrovli maqsad va vazifalar ko'zda tutilgan. Bu yilgi davlat dasturi loyihasi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yangi bosqichni boshlash va aholining barcha qatlamlari uchun ekologik xavfsiz va barqaror kelajak yaratishga qaratilgan bilan alohida ahamiyatga ega. Shu bois, bu hujjat loyihasi keng jamoatchilik tomonidan qizg'in muhokama etilib, uni yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar bildirilmoqda.

mahoratini oshirishga e'tibor kuchaydi. "Xalq va armiya — bir tan-u bir jon" degan ezgu g'oya asosida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida milliy armiyamizda chuqur sifat o'zgarishlari yuz bermoqda, uning saflarida xizmat qilish tom ma'noda shon-sharaf ishiga aylanib bormoqda. Bugungi tahlikali davrda bu natijalar bilan qanoatlanib, xotirjamlikka berilib bo'lmaydi. Chunki dunyo notinch, o'zaro nizolar, kelishmovchiliklar insoniyatning tinch hayotiga xavf solmoqda. Mana shunday murakkab davrda davlatimizning mustaqilligi va suverenitetini, xalqimizning tinch va erkin hayotini eng bebaho boylik sifatida asrash hamda himoya qilish muhim vazifadir.

Shu nuqtayi nazardan, 2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturi loyihasida bu

yo'nalishda qator vazifalar belgilangan ayni muddao bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston Qurolli Kuchlarini zamonaviy geoaxborot dasturiy ta'minot vositalari, topogedezik ta'minotning maxsus texnikalari bilan ta'minlashni davom ettirish, topogedezik ishlarni bajarish hamda bu borada kadrlar salohiyatini oshirib borish ko'zda tutilmoqda. — Hujjatga muvofiq, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi hamda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik va psixologik ishlar yanada takomillashiriladi, — deydi Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov. — Aholi va yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasi va targ'iboti kuchaytiriladi. Vatan himoyachilarini tayyorlash va tarbiyalash tizimi rivojlantiriladi. Vazirlik kadrlari bilan ishlash sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish ishlari davom ettiriladi. Mudofaa vazirligi tizimidagi alohida batalyon va undan yuqori bo'linmalar

ishtiqbolli komandir va boshliqlarining nazariy bilimi, professional tayyorgarligi darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish ham ko'zda tutilgan. Ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda vazirlik tizimida istiqbolli kadrlar zaxirasini yaratish tizimini takomillashtirish masalalari e'tibor markazida bo'ladi.

Bundan tashqari, vazirlik mudofaa ishlari boshqarmalari va bo'limlarining infratuzilmasi, o'quv moddiy-texnik bazasini zamon talablari asosida jihatlash, zarur xizmat texnikalari bilan bosqichma-bosqich ta'minlash borasidagi ishlar ham davom ettiriladi.

Davlat dasturi loyihasida favqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi o'taqarilgan o'xush masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Xususan, aholining barcha qatlamlarini zilziladan oldin, zilzila paytida va undan so'ng harakat qilish qoidalarga o'rgatish ko'rsatkichini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shuningdek, yong'inlarni barvaqt aniqlash tizimini joriy etish, chegaralarimiz daxsizligini ta'minlash, uni qo'riqlash va himoya qilish tizimini mustahkamlash borasida ham qator muhim vazifalar o'rin olgan.

Ushbu ustuvor maqsad va chora-tadbirlarning ijrosini o'z vaqtida, sifatida va samarali ta'minlashga, avvalo, xalq vakillari hamda davlat xizmatchilari jiddiy mas'uliyat bilan yondashishi lozim.

Zero, umummilliy harakatga aylanib borayotgan yangi O'zbekiston g'oyasi zamirida ana shunday ulug' maqsadlarni amalga oshirish, yurt tinchligi, xalq rozligi va farovonligini ta'minlash maqsadi mujassam.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



O'ZBEKISTON VA BAA O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIK UFQLARINI KENGAYTIRMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari amirliklar poytaxtida BAA Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon bilan ikki tomonlama muzokaralar o'tkazadi, mamlakatning yetakchi davlat tashkilotlari, kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashadi, shuningdek, "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" xalqaro sammitida ishtirok etadi.

Dubay shahrida BAA Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay Amiri Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum bilan uchrashuv o'tkazilishi rejalashtirilgan.

"Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" xalqaro sammiti "Barqaror innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash" mavzusiga bag'ishlangan. Tadbirlarda Amirlarning yetakchi kompaniyalari ishtirokida amalga oshirilayotgan va istiqbolli loyihalar portfli 20 milliard dollarga yetdi.

2024-yil dekabr holatiga ko'ra, mamlakatimizda BAA kapitali ishtirokida 337 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. 2024-yil 3-may kuni Toshkent shahrida Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning 5-yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Ikki davlat ham o'zaro munosabatlarni raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar va ta'lim kabi yangi sohalarida yanada mustahkamlash hamda hamkorlikni kengaytirish tarafdori. Mamlakatlarimiz barqaror rivojlanish va farovonlikka yo'naltirilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirgan.

Davlatlarimiz o'rtasida haftasiga 55 ta reysni o'z ichiga olgan muntazam aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgani, o'z navbatida, ishlabarmon doiralari o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga, o'zaro sayyohlar oqimining oshishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston BAA bilan xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida faol hamkorlik qiladi. Xususan, Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi bilan munosabatlar yangi sur'atga ko'chdi. 2024-yil aprel oyida Toshkent shahrida siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni kengaytirish masalalari muhokamasiga qaratilgan "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" Strategik muloqot tashqi ishlar vazirlarining ikkinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Shu bilan birga, BAA Islom hamkorlik tashkiloti va Arab davlatlari ligasi kabi tashkilotlarning yetakchi davlatlaridan biri, mamlakatlarimiz faol hamkorlik qilayotgan Shanxay hamkorlik tashkilotida muloqot bo'yicha hamkor hisoblanadi.

Ikki davlat madaniy aloqalar va gumanitar almashinuvlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. O'zbekiston va BAA xalqlari o'rtasidagi o'zaro anglashuv va do'stlikni mustahkamlash maqsadida madaniy tadbirlar, ko'rgazma va festivallar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqqa festivali, Shahrisabzda bo'lib o'tadigan maqom san'ati, Termiz shahridagi xalqaro baxshichilik san'ati festivallarida Amirlarning folklor jamoalari doimiy ishtirok etmoqda.

2019-2023-yillarda O'zbekiston delegatsiyasi Abu-Dabi shahrida o'tkazilgan Birlashgan Arab Amirlari assoschisi Shayx Zaydnid madaniy merosiga bag'ishlangan festivalda milliy pavilyon bilan ishtirok etdi.

2023-yil mart oyida "Dubai Opera" majmuasida "Bahor" raqs ansambli dasturining xalqaro premyerasi o'tkazildi, o'zbek raqs san'ati arab tomoshabinlari tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Bugungi kunda davlatlar O'zbekiston va Abu-Dabi muzeylarida qo'shma ko'rgazmalar tashkil etish, madaniy meros sohasida o'zaro manfaatli hamkorlikda tadqiqotlar o'tkazish, madaniy merosni asrab-avaylash, muzeylarni boshqarish, restavratsiya va boshqa sohalarida tajriba almashish, shuningdek, ta'lim yo'nalishidagi loyihalarni amalga oshirish orqali madaniy muloqotni rivojlantirmoqda.

Shu tariqa O'zbekiston va BAA o'rtasidagi aloqalar hamkorlikning tobora ko'proq yo'nalishlarini qamrab olib, Markaziy Osiyo va Ko'rfaz arab davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi yuksak darajada rivojlanishda davom etmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 13-yanvar kuni boshlangan BAAga tashrifi, shubhasiz, o'zaro munosabatlar rivojida muhim bosqich bo'lib, ikki davlatning iqtisodiyot, energetika, investitsiya va madaniy-gumanitar kabi asosiy hamkorlik yo'nalishlaridagi aloqalarini yanada kengaytirishga bo'lgan intilishini tasdiqlaydi. Mazkur tashrif, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasidagi munosabatlarni mustahkamlash, davlatlarning barqaror yuksalishi va farovonligiga ko'maklashishga ham xizmat qiladi.

Tashrif doirasida Amirlar delegatsiyasi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilindi, shuningdek, hukumatlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish forumida ishtirok etdi. Tashrif yakunlari bo'yicha qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston bilan BAA o'rtasida izchil rivojlanib borayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlari yangi sur'at kasb etmoqda. O'zbekistonda Amirlarning yetakchi kompaniyalari ishtirokida amalga oshirilayotgan va istiqbolli loyihalar portfli 20 milliard dollarga yetdi.

2024-yil dekabr holatiga ko'ra, mamlakatimizda BAA kapitali ishtirokida 337 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. 2024-yil 3-may kuni Toshkent shahrida Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning 5-yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Ikki davlat ham o'zaro munosabatlarni raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar va ta'lim kabi yangi sohalarida yanada mustahkamlash hamda hamkorlikni kengaytirish tarafdori. Mamlakatlarimiz barqaror rivojlanish va farovonlikka yo'naltirilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirgan.

Davlatlarimiz o'rtasida haftasiga 55 ta reysni o'z ichiga olgan muntazam aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgani, o'z navbatida, ishlabarmon doiralari o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga, o'zaro sayyohlar oqimining oshishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston BAA bilan xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida faol hamkorlik qiladi. Xususan, Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi bilan munosabatlar yangi sur'atga ko'chdi. 2024-yil aprel oyida Toshkent shahrida siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni kengaytirish masalalari muhokamasiga qaratilgan "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" Strategik muloqot tashqi ishlar vazirlarining ikkinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Shu bilan birga, BAA Islom hamkorlik tashkiloti va Arab davlatlari ligasi kabi tashkilotlarning yetakchi davlatlaridan biri, mamlakatlarimiz faol hamkorlik qilayotgan Shanxay hamkorlik tashkilotida muloqot bo'yicha hamkor hisoblanadi.

Ikki davlat madaniy aloqalar va gumanitar almashinuvlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. O'zbekiston va BAA xalqlari o'rtasidagi o'zaro anglashuv va do'stlikni mustahkamlash maqsadida madaniy tadbirlar, ko'rgazma va festivallar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqqa festivali, Shahrisabzda bo'lib o'tadigan maqom san'ati, Termiz shahridagi xalqaro baxshichilik san'ati festivallarida Amirlarning folklor jamoalari doimiy ishtirok etmoqda.

2019-2023-yillarda O'zbekiston delegatsiyasi Abu-Dabi shahrida o'tkazilgan Birlashgan Arab Amirlari assoschisi Shayx Zaydnid madaniy merosiga bag'ishlangan festivalda milliy pavilyon bilan ishtirok etdi.

2023-yil mart oyida "Dubai Opera" majmuasida "Bahor" raqs ansambli dasturining xalqaro premyerasi o'tkazildi, o'zbek raqs san'ati arab tomoshabinlari tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Bugungi kunda davlatlar O'zbekiston va Abu-Dabi muzeylarida qo'shma ko'rgazmalar tashkil etish, madaniy meros sohasida o'zaro manfaatli hamkorlikda tadqiqotlar o'tkazish, madaniy merosni asrab-avaylash, muzeylarni boshqarish, restavratsiya va boshqa sohalarida tajriba almashish, shuningdek, ta'lim yo'nalishidagi loyihalarni amalga oshirish orqali madaniy muloqotni rivojlantirmoqda.

Shu tariqa O'zbekiston va BAA o'rtasidagi aloqalar hamkorlikning tobora ko'proq yo'nalishlarini qamrab olib, Markaziy Osiyo va Ko'rfaz arab davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi yuksak darajada rivojlanishda davom etmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 13-yanvar kuni boshlangan BAAga tashrifi, shubhasiz, o'zaro munosabatlar rivojida muhim bosqich bo'lib, ikki davlatning iqtisodiyot, energetika, investitsiya va madaniy-gumanitar kabi asosiy hamkorlik yo'nalishlaridagi aloqalarini yanada kengaytirishga bo'lgan intilishini tasdiqlaydi. Mazkur tashrif, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasidagi munosabatlarni mustahkamlash, davlatlarning barqaror yuksalishi va farovonligiga ko'maklashishga ham xizmat qiladi.

"Dunyo" AA

Kelgusi 2 yilda xususiy tadbirkorlar bilan birga 2 mingdan ortiq kichik va mikro GES tashkil qilinadi. Sohaga xususiy sektor kirib kelishi rag'batlantirilib, elektr energiyasi bozorini tashkil etish bo'yicha katta qadamlar qo'yiladi. Xususan, 2025-yil yakuniga qadar raqobatli savdolar orqali elektr energiyasi ulgurji bozori yaratiladi.

KATTA YO'LNING KATTA TASHVISHLARI

YOXUD PREZIDENTIMIZNING "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASINI "ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI"DA AMALGA OSHIRISH BO'YICHA DAVLAT DASTURI VA UNI TASDIQLASH TO'G'RSIDA"GI FARMONI LOYIHASINI O'QIB

Abdusaid KO'CHIMOV,
Oliy Majlis Senatining
Budjet va iqtisodiy
masalalar qo'mitasi a'zosi

Boshlanishi 1-betda

Muammolarning eng murakkablaridan biri xalqning davlatga nisbatan yo'qotilgan ishonchini tiklash edi. Davlat bilan xalq orasida jarlik paydo bo'lgan, qarorlar bir tomon manfaatidan kelib chiqib qabul qilinadi, xalqimiz orzu qilgan adolati jamiyat armon bo'lib kelayotgandi. Davlatimiz rahbari ilk qadamlarini viloyatlarga chiqib, oddiy xalq vakillari, turli kasb egalari bilan bevosita muloqot qilishdan boshladi. Joylardagi yutuq va kamchiliklar, muammolar bilan chuqur tanishdi, odamlarning fikr-mulohazalarini tingladi. Shu asno har bir farmon va qarorni xalq bilan bamaslahat qabul qilish temir qoidaga aylandi. Zero, maslahatli osh to'li bo'ladi, yetti o'lchab bir kesgan adashmaydi, rejali ish buzilmaydi. Natijada odamlarning fikri o'zgardi, kelajakka ishonchi mustahkamlandi, qabul qilinayotgan hujjatlariga munosabati faollashdi. Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qila boshladi.

Aynan shu tizim asosida dunyoga keldi bugun hammamizga iftixor bag'ishlayotgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi ham. Xalqimiz strategiyani ijodkori, hammuallifiga aylandi.

Mazkur strategiyani bugun yana bir karra xalq muhokamasiga taqdim qilingan 2025-yilga oid davlat dasturi loyihasi aholi tanishib chiqishi uchun nihoyatda qulay va ixcham shaklda tayyorlangan. Unda "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati va har bir yo'nalishga doir maqsadli ko'rsatkichlar nazarda tutilmoqda. Loyihada Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, siyosiy partiyalar fraksiyalarining taklif va tashabbuslari inobatga olingan.

Davlat dasturining qator muhim jihatlari alohida qayd etish o'rinli. Loyihada aks ettirilgan asosiy vazifa va choralarda yil nomidan kelib chiqib, atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot masalalariga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Dastur ijrosini sifatli va o'z vaqtida tashkil etish maqsadida uning har bir bandi bo'yicha choralar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlar va ularga mas'ul ijrochilar belgilanmoqda.

Hayotda har bir millatning, har bir davlatning nimalarga qodirligi, avvalo, uning niyati va orzu-havasga erishish yo'lidagi intilishlariga bog'liq. Maqsadning nechog'liq ulug'vorligi ertamizni, ertangi kundagi martabamizni belgilab beradi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi kabinetda o'tirib yaratilgan yo'q. Prezidentimizning "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni loyihasining

keng jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilingani ham shuning dalolatidir. Xalq fikrini so'rash, o'rganish va inobatga olish — farovon yashash umididagi kishilarni rozi qilish yo'lida tashlangan oqilona qadam.

II

Mazkur farmon loyihasining qamrovi nihoyatda keng. Bir maqolada barchasiga to'xtalishning iloji yo'q, albatta. Shu bois, ularning ayrimlarini tilga olish bilan cheklanamiz. Demak, bir yilning o'zida 32 ta shaharda aholi piyoda va velosipedda sayr qiladigan "Soyali sayr ko'chalari" barpo etiladi, 64 ta mahallada tajriba tariqasida yomg'ir va oqova suvdan samarali foydalanish yo'lga qo'yiladi. Mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sug'orish tizimi joriy etiladi. Yana odamlar dam olishi uchun sohillarda zarur infratuzilmani yaratishga qaratilgan 80 ta loyiha amalga oshiriladi.

Ayni chog'da "Bir million yashil oila" harakati yo'lga qo'yilib, yurish va yugurish, "yashil" transportda harakatlanish, oziq-ovqat isrofining oldini olish, energiya resurslaridan oqilona foydalanishni targ'ib qilish, 200 million tup ko'chat ekish, yashil bog'lar sonini 257 tadan 701 taga, Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonlarni 2,1 million gektarga yetkazish, 4 ta galofit bog' tashkil etish kabilar ham islohotlar to'g'ridan to'g'ri xalqimiz farovonligiga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Global iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, tabiat sofligi bugun Yer yuzidagi eng dolzarb masalaga aylandi. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, global isish tabiiy muvozanatga va odamlar sog'lig'iga juda katta zarar yetkazmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasidagi keng ko'lami islohotlar Orolbo'yi mintaqasi tarixida yangi sahifa ochib, bu hududni rivojlantirishga qaratilgan harakatlarini birlashtirishga xizmat qilmoqda. Farmon loyihasida Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonlar 2,1 million gektarga, o'rmon bilan qoplangan maydonlar 4,1 million gektarga yetkazilishi ko'zda tutilgan. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar 14,56 foizgacha kengaytirilib, ekoturizm, ko'chatchilik va dorivor ekinlar yo'nalishlarida foydalanilmagan zaxiralari aniqlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlarda sho'r va suvsizlikka chidamli o'simliklar bog'lari hamda davlat "in-vitro" laboratoriyalari tashkil qilinadi. Xususiy "in-vitro" laboratoriyalarini barpo etayotgan tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish uchun xalqaro moliya institutlaridan kamida 30 million dollar miqdordagi mablag' jalb etiladi. Xayrli tadbirlar dahshatli ekologik muammo ko'lamin kamaytirish yo'lidagi gumanistik qadam bo'ladi.

III

To'g'ri, yurtimizda xalqni rozi qilish borasidagi yutuqlar oz emas. Lekin kamchiliklar, murakkabliklar, muammolar ham yetarli. Hech kim buni xaspo'shlayotgani yo'q.

O'zbekiston katta yo'lga chiqdi. Katta yo'lga katta-qatta qiyinchiliklar, to'siqlar bo'ladi. Misol uchun, tabiat musaffoligini asrash masalasi. Birgina "Yevro-4" standartidan past bo'lgan motor yonilg'isini sotish hamda issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalarida mazutdan foydalanish tufayli ozmuncha zarar ko'riyaptimi? Endi mazkur kamchilikka ham bosqichma-bosqich chek qo'yiladi.

2025-yildan investitsiya dasturlari, tarmoq, sohalar va hududlarni rivojlantirish loyihalarning 10 foizi, 2027-yildan 25 foizi, 2030-yildan 50 foizi "yashil" loyihalar bo'lishi ta'minlanadi. Shuningdek, 2026-yildan



O'ZBEKISTON KATTA YO'LGA CHIQQI. KATTA YO'LDA KATTA QIYINCHILIKLAR, TO'SIQLAR BO'LADI. MISOL UCHUN, TABIAT MUSAFFOLIGINI ASRASH MASALASI. BIRGINA "YEVRO-4" STANDARTIDAN PAST BO'LGAN MOTOR YONILG'ISINI SOTISH HAMDA ISSIQLIK VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MAZUTDAN FOYDALANISH TUFAYLI OZMUNCHA ZARAR KO'RILYAPTIMI? ENDI MAZKUR KAMCHILIKKA HAM BOSQICHMA-BOSQICH CHEK QO'YILADI.

boshlab ichimliklarning plastik qadog'ida rangli plastikni ishlatish, 2027-yildan plastik paketlar ishlab chiqarish, olib kirish va foydalanish taqiqlanadi va umumiy quvvati 3,5 gigavatt bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini foydalanishga topshirish orqali ularning jami elektr energiyasi iste'molidagi ulushi 26 foizga yetkaziladi.

Yevropa Ittifoqi ishtirokida Buxoro, Namangan, Nukus, Urganch va G'uzorda kam uglerodli rivojlanish rejalarini ishlab chiqilib, 10 ta ijtimoiy obyektning energiya samaradorligi oshiriladi. Ko'zda tutilayotgan bu yumushlar xalqimiz salomatligi, atrof-muhit muhofazasiga qaratilgani bilan qimmatlidir. Mazkur dastur ijrosini ta'minlash maqsadida qariyb 90 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi va qabul qilinishi nazarda tutilmoqda.

Dastur qabul qilinishi "O'zbekiston — 2030" strategiyasida hamda Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatimizning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarmoqlar sohalarning uyg'un "yashil" transformatsiyasini amalga oshiradi, raqobatbardoshligi va tejamkorligini ta'minlaydi. Aholiga iqtisodiy o'sishning yangi — "yashil" rivojlanish modeliga o'tish imkoniyatini yaratadi.

Loyihada ko'zda tutilgan yangicha yondashuvlar 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini kamida 6 foiz va uning miqdorini 200 milliard dollarga yetkazish, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishish uchun mustahkam zamin hozirlaydi. Ishonch bilan aytish mumkinki, davlat dasturi loyihasi mamlakatimizda yangilanishlar, islohotlar izchil davom etishining o'ziga xos kafolatidir.

IV

"Yashil" energetika milliy iqtisodiyotimiz drayveriga aylanayotganidan kelib chiqib, bu yo'nalishda ham kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalar belgilanayotgani uzoq yillardan beri xalqimizni qiyinlab kelayotgan muammolarga yechim bo'ladi, albatta. Bundan oldi yil muqaddam O'zbekistonda "yashil" energetika yoki qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasi arzimagan miqdorda edi. Joriy yilgi davlat dasturi loyihasida bo'radagi ishlarni butunlay yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha aniq vazifalar qo'yilmoqda.

Jumladan, aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi

energiya manbalaridan keng foydalanishni rag'batlantirish maqsadida 2025-yil 1-apreldan boshlab chiqindilar utilitatsiyasi hisobiga hamda shamol va quyosh manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun "yashil tarif"larni joriy qilish taklif etilyapti. Bu "yashil" energiyadan foydalanayotgan xalqimiz uchun ham, tadbirkorlarimiz uchun ham katta imkoniyat va yengillikdir.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan "yashil" energiya manbalarini barpo qilish bo'yicha katta dasturlar yaratildi. Investorlar uchun jozibador muhit tashkil etildi. Natija raqamlarda ko'zga tashlanadi. Diqqat qiling, birgina 2025-yilda 3,4 ming megavattli 18 ta quyosh va shamol stansiyasi hamda 1,8 ming megavattli saqlash tizimlari ishga tushiriladi. 2025-yil adog'igacha "yashil" energiya ishlab chiqarish hajmi 12 milliard kilovattsoatga yetkaziladi. Bu 5 million xonadonning bir yillik iste'moliga teng va 6,5 million tonna zararli gaz atmosferaga chiqishining oldi olinadi deganidir.

Kelgusi 2 yilda xususiy tadbirkorlar bilan birga 2 mingdan ortiq kichik va mikro GES tashkil qilinadi. Sohaga xususiy sektor kirib kelishi rag'batlantirilib, elektr energiyasi bozorini tashkil etish bo'yicha katta qadamlar qo'yiladi. Xususan, 2025-yil yakuniga qadar raqobatli savdolar orqali elektr energiyasi ulgurji bozori yaratiladi.



Bular aytishga oson, ammo bajarish ko'p murakkab vazifalardir. Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan boshlangan islohotlar tufayli sarmoyadorlarning yurtimizga qaytishi mana shunday ulkan loyihalarni amalga oshirish imkonini beryapti.

V

Ha, davlat dasturi loyihasida bag'oyat katta marralar belgilangan. Ammo bular shunchaki mahobatli rejalar yoxud hoyu havaslar emas. Har bir maqsadning mustahkam zamini, ijro muddati, mas'ullari va eng asosiysi, maqsad sari ishonch bilan intiluvchi xalq bor. So'nggi 7-8 yilda yangi odamlar shakllandi. Yangi O'zbekiston yangi odamlarni tarbiyaladi, tobladi. Odamlarning ruhiyati o'zgardi. Bir-birini tushunadigan, ishonadigan, bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan maslakdoshlar guruhi dunyoga keldi. Vatan kelajagi uchun qayg'urish tuyg'usi qulf urdi, g'ayratli, g'ururli, e'tiqodli, saxovatli qalblarda to'ldiriladi.

Aholi turmush darajasini oshirishning amaliy poydevori vazifasini bajarayotgan farmonlar esa xalqimiz ruhoniyatidagi ezgulik daryolariga ayrica shiddat bag'ishlayotir. Shu ma'noda, ijtimoiy infratuzilmalarni takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirish, xususiy sektorni rivojlantirish va innovatsion

yechimlar joriy etishga qaratilgan mazkur hujjatni ham, hech shubhasiz, mamlakatimiz kelajagini belgilab bergan taraqqiyot dasturi, deyish mumkin.

O'zbekistonda 2025-yilning Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb e'lon qilingani mamlakatning ekologik mas'uliyati va kelajak uchun tabiiy resurslarga g'amxo'rlik qilish majburiyatini ham tasdiqlaydi. Bu tashabbus mamlakatimizning uzoqni ko'zlab, global ekologik muammolarga javob berishdagi qat'iyati va pozitsiyasini aks ettiradi.

Davlatimiz rahbari bugun iqlim o'zgarishi, havo va suv ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, qazib olinadigan yoqilg'idan nazoratsiz foydalanish kabi salbiy oqibatlar nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda sezilayotganiga e'tibor qaratmoqda. Mutaxassislar fikricha, iqlim o'zgarishi natijasida 2050-yilga borib Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslari 10-15 foiz kamayishi, yer degradatsiyasi tufayli qishloq xo'jaligi hosildorligi 20-30 foiz pasayishi kutilmoqda. Uglerod chiqindilari yillik hajmi 400 million tonnani tashkil etadi. Mavjud hayvon va o'simlik turlarining 12 foizi yo'qolish xavfi ostida. Suv va havo ifloslanishi sababli mintaqada har yili 50 mingdan ziyod inson turli surunkali kasalliklardan vafot etadi.

Ushbu raqamlar Markaziy Osiyodagi ekologik muammolar naqadar jiddiyligini ko'rsatadi va darhol qat'iy choralar ko'rishni talab qiladi. Dasturiy hujjat shuni bilan ham muhim. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ekologik tadbirkorlik va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, qo'shimcha ish o'rinalari ochish imkonini beradi. Bu qadamlar O'zbekistonning barqaror rivojlanayotgan davlat sifatida xalqaro maydondagi mavqini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Taraqqiyot shu qadar murakkab va og'ir jarayonki, insonlar ham, jamiyat



ham har qadamda turli qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz keladi. Biz yashab turgan va undan ham kengroq geopolitik hududlarda yuz berayotgan siyosiy nayrangbozliklar kundan kun avjlanib borayotgan zamonda esa taraqqiyot sari intilish chin ma'noda hammamizdan vatanparvarlikni talab qiladi. Yer yuzi notinch. Atrofimizda bezovta mintaqalar, o'z so'zini o'tkazishga chiranayotgan unsurlar, yo'limizdan chalg'itishga intilayotgan g'animlar izg'ib yurgan serg'alva kunlarda Prezidentimizning tinchlikni asrash va Vatan soadati ta'minlashga doir farmoni loyihasining muhokama uchun e'lon qilinishi, unda taraqqiyot dasturi belgilab berilishi ham chin ma'noda Yaratganning buyuk ne'matidir.

Ayonki, hamma biladigan gap azaldan aksioma deyiladi. O'zbek xalqining so'ngi yillarda erishgan muvaffaqiyatlarini ahli olam ko'rib turibdi. Vatanimiz oxirgi 7-8 yil ichida nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun MDH makonida yangilanish va taraqqiyotda iqtisodiy islohotlar drayveriga aylandi. Bu esa yangi O'zbekistonning asosiy g'oyasi bo'lgan "Inson qadri uchun" formulasi hamda "Inson — jamiyat — davlat" degan islohotlarning bosh tamoyili hayotga beqam-u ko'st tatbiq etilayotganining yorqin ko'zgusi, aziz vatanimizda bunday xalqchil yumushlar bardavom ekanining kafolatidir.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

MOPED VA SKUTERLAR HAM ENDI TRANSPORT VOSITASI

Ularga davlat raqami belgisi olish va haydovchilik guvohnomasi bilan boshqarish tartibi qanday?



2025-yilning 1-martidan e'tiboran davlat raqami belgisi va "A" toifadagi haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmagan moped va skuterlar haydovchilariga nisbatan belgilangan tartibda yo'l harakati qoidalariga muvofiq jazo choralarini qo'llanadi.

o'z hududida "A" toifa haydovchiligiga o'qitadigan avtomaktablar yo'qligini aytaydi.

Avtomobil haydovchilari esa bu ayni kerakli qaror bo'ldi, degan fikrda. Boisi, keyingi vaqtlarda yo'llarda moped va skuterlar ko'payib qolgan, ularning ayrim haydovchilari tomonidan yo'l harakati qoidalariga qo'pol tarzda buzilayotgani sir emas. Ammo ushbu mototransport vositalari davlat raqami belgisiga ega bo'lmagan boisi, ularni kameralar qayd etmaydi va jarima to'lashdan qutulib qoladi. Bundan ko'pincha avtotransport vositalari egalari zarar ko'radi.

Mutasaddilar ta'kidicha, moped va skuterlar xuddi boshqa transport vositalari singari yo'llarda harakatlanar ekan, demak, yo'l harakati qoidalarini boshqa haydovchilar kabi bilishi va rioya etishi kerak. Shu bois, 1-martdan boshlab moped va skuterlarni davlat raqami belgisi bilan boshqarish majburiyati belgilandi. Buning huquqiy asoslari va zaruriy tabirlari ham ko'rsatilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-iyuldagi tegishli qarori bilan avtomobil yo'lida harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bir qancha o'zgartirishlar kiritilib, elektromotorsikl, moped va skuterlar uchun alohida farqlovchi davlat raqami belgilari joriy etilgan, — dedi Respublika Yo'l harakati xavfsizlik xizmati axborot xizmati boshlig'i Zoyir Yo'ldoshev. — Mazkur qaror bilan foydalanishda bo'lgan moped va skuterlarni davlat raqami belgisizlik tartibi to'g'risida 2025-yil 28-fevralga qadar amal qiladigan vaqtinchalik nizom ham tasdiqlangan. Unga ko'ra, dvigatelining ish hajmi 25 kub santimetr va undan ortiq, lekin 50 kub santimetrdan oshmaydigan, shuningdek, elektr dvigatelining quvvati 0,25 kilovatt va undan ortiq, biroq 4 kilovattidan oshmaydigan, konstruktiv tezligi soatiga 25 kilometr va undan ortiq, lekin 50 kilometrdan oshmaydigan transport vositalari (moped va skuter) uchun alohida raqamdan o'tkazish davlat raqami belgilari joriy etildi. Shuningdek, ushbu turdagi transport vositasini boshqarishda, albatta, haydovchining boshida shlem, egnida xavfsizlik nimchasi bo'lishi talab qilinadi. Qolaversa, haydovchidan milliy

haydovchilik guvohnomasining "A" toifasi so'raladi. Ushbu transport vositalarini ijaraga olish yoki berishda, ishonchnoma orqali boshqarishda ham davlat raqami belgilari bo'lishi zarur. Aks holda, haydovchiga nisbatan jarima solinadi.

Bu qaror, avvalo, xalq manfaati, haydovchi va yo'lchilarni xavfsizligini ta'minlash maqsadida qabul qilinishini tushunish kerak. Haydovchilik guvohnomasini olgan fuqaro yo'l qoidalarini biladi va ularga amal qiladi. Moped va skuterlarni davlat raqamidan o'tkazib, davlat raqami belgilari berish ham xavfsizlikni ta'minlash choralarini bilan bog'liq. Xususan, ushbu turdagi transport vositalarining texnik sozligini tekshirish, ular bilan bog'liq o'g'irlik jinoyatlarining oldini olish va hokazo holatlar hisobga olingan. Yuqoridagi nizomning amal qilish muddati tugaguniga qadar — shu yil 1-martgacha moped va skuterlar belgilangan tartibda davlat raqamidan o'tkazilishi kerak. Bu davr ushbu transport vositalari egalari uchun imkoniyat bo'lib, hozir bitta tushuntirish xati yoki ariza bilan amalga oshiriladi. Belgilangan muddatdan keyin esa umumiy tartibda davlat raqamidan o'tkazish yo'lga qo'yilib, moped va skuterlardan ham xuddi boshqa transport vositalari singari hibos varaqasi so'raladi.

Moped yoki skuterlar Yo'l harakati xavfsizlik xizmati hududiy boshqarmalarining ro'yxatidan o'tkazish va imtihon olish bo'limlari tomonidan davlat raqamidan o'tkaziladi. Jarayon o'tgan yil oktyabrda boshlangan. Joriy yil avvalidan talabgorlar soni yanada oshdi. Shu yil 10-yanvarda

Surxondaryo viloyati yo'l harakati xavfsizlik boshqarmasi ro'yxatidan o'tkazish bo'limida ham viloyatdagi bir nechta mopedga davlat raqami topshirildi. Belgilangan muddat tugashidan oldin odamlar o'ziga tegishli moped va skuterlarni davlat raqamidan o'tkazib, davlat raqami belgilari olishga intilyapti. Bu muddat so'ngiga borib, nabat keskin ortishining oldini oladi.

Ammo haligacha bu amaliyot tartibi haqida aniq tushunchaga ega bo'lmaganlar ham bor. Mutasaddilarning tushuntirishicha, moped va skuter egalari davlat raqami belgisini olish uchun Yo'l harakati xavfsizlik xizmati hududiy boshqarmalarining ro'yxatidan o'tkazish va imtihon olish bo'limlariga murojaat qiladi. U yerda mas'ul xodimlar tomonidan moped yoki skuter tashqi ko'rinishi, agregat raqamlari o'rganiladi va raqamlar maxsus tizimga kiritiladi. Murojaatchi shaxsini tasdiqlovchi hujjatni xodimga taqdim etgach, ortiqcha so'rov-savollarga javob berilgan tartibda tushuntirish xati blankalarini to'ldiradi. Tegishli tartibda davlat bojini to'lagach, ro'yxatga olish ishlari bajariladi.

Ayni paytda moped yoki skuterlarni davlat raqamidan o'tkazish to'lovi bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 barabari — 562 ming 500 so'mni tashkil qiladi. Davlat raqamini olish to'lovi ham xuddi shuncha miqdordagi — 562 ming 500 so'm. Transport vositasi ro'yxatidan o'tgani to'g'risidagi guvohnoma uchun bazaviy hisoblash miqdorining 70 foizi — hozir 262 ming 500 so'm to'lanadi. Servis uchun esa

bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi — 37 ming 500 so'm olinadi. Shunday qilib, moped va skuterlarni davlat raqamidan o'tkazish va davlat raqami belgilari olish uchun jami 1 million 425 ming so'm davlat badali to'lanadi.

Avvalgi yo'l harakati qoidalarida "skuter" atamasi mavjud bo'lmagan va mopedning izohida bitta bo'lib keltirilgan. Hukumatning tegishli qarori bilan yo'l harakati qoidalariga kiritilgan o'zgartirishlarda esa "skuter" atamasi "moped" atamasidan ajratib olindi va alohida izohiga ega bo'ldi. Shunday qilib, moped bu — ichki yonuv dvigateligiga ega bo'lgan, 2, 3 yoki 4 g'ildirakli transport vositasi bo'lsa, skuter elektr dvigateligiga ega bo'lgan, 2, 3 yoki 4 g'ildirakli transport vositasidir.

Shu kungacha moped va skuterlar velosiped yo'laklari bo'yab harakatlanishi kerak edi. Avtomobil yo'lida esa ularning boshqa tasmlarga o'tishi hamda qayrilib olishida cheklov mavjud bo'lgan. Endi moped va skuterlar ham transport vositalari qatorida avtomobil haydovchilari harakatlanayotgan qatnov qismidan boshqa tasmlarga o'tib harakatlanishi mumkin. Ushbu imkoniyat va qulaylik qo'shimcha tabalar ham yuklaydi. Mazkur turdagi transport vositalarini boshqaruvchi haydovchilar "A" toifadagi haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lishi majburiy etib belgilandi.

Ushbu talab aholi orasida turli bahs-munozaralarga sabab bo'lyapti. Asosiy muammo Toshkent shahri va boshqa hududlarda salkam bir yil davomida "A" toifadagi haydovchilik guvohnomasiga o'qitadigan avtomaktablar bo'lmagan, oxirgi bir oyda ularning bir nechtasi ish boshlagani bilan bog'liq. Qolaversa, moped va skuter haydovchilarining ko'pi ijtimoiy qiynalgan insonlar bo'lib, ushbu

nisbatan arzon transport vositasidan tirikchilik manbai sifatida foydalanadi. Shu bois, odamlar orasida qisqa muddatda "A" toifadagi haydovchilik guvohnomasi olish mumkinmi, uning xarajatlari transport vositasining o'zidan ham qimmatga tushmaydimi, bu talab sharoiti og'ir insonlarni qiynab qo'yaydimi, degan e'tirozli savollar ko'paygan.

— "A" toifadagi haydovchilik guvohnomasi olish uchun barcha haydovchilar avtomaktabda o'qishi talab etilmaydi, — deydi Respublika Yo'l harakati xavfsizlik xizmati axborot xizmati boshlig'i Zoyir Yo'ldoshev. — Umuman, haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmagan fuqarolar moped va skuterlarni boshqarish uchun avtomaktabda tegishli tartibda o'qishi kerak. "B" va "C" turdagi haydovchilik guvohnomasi bo'lgan insonlar esa "A" toifadagi haydovchilik guvohnomasini olish uchun qayta o'qishi shart emas. Ular imtihon markazlariga borib, tegishli tartibda imtihon topshirish orqali "A" toifadagi haydovchilik guvohnomasini olishi mumkin. Avtomaktablarda bunday toifadagi haydovchilik guvohnomasi berish bir muddat to'xtab qolgan o'rinni e'tiroz. Gap shundaki, avtomaktablarning hammasi xususiy sektor bo'lgani bois, talabdan kelib chiqib litsenziya oladi va shunga qarab haydovchilar tayyorlaydi. "A" toifadagi haydovchilik guvohnomasi uchun o'qitish kurslari tashkil etilmagan ham ana shu talab bilan bog'liq. Ayni paytda Toshkent shahrida 160 ta avtomaktab faoliyat yuritayotgan bo'lsa, shundan 10 tasida "A" toifadagi haydovchilik guvohnomasi berilyapti.

Shunday qilib, qaror tabalar qat'iy. Talabgorlar belgilangan muddatga qadar ulgurishi kerak. Chunki 2025-yilning 1-martidan e'tiboran davlat raqamidan o'tmagun, davlat raqami belgisi va "A" toifadagi haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmagan moped va skuterlar haydovchilariga nisbatan belgilangan tartibda yo'l harakati qoidalariga muvofiq jazo choralarini qo'llanadi. Transport vositasi harakatidan to'xtatilib, jarima maydoniga qo'yilishi mumkin.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Hududlar hayoti

Paxtakor tumani yaqin yillargacha o'z nomiga mos, agrar sohaga ixtisoslashgan bo'lib, asosan, paxta va g'alla yetishtirar, ishlab chiqarish, sanoat korxonalarini deyarli yo'q edi. Mamlakatimizda yangi davr nasimi esgach, Paxtakor va paxtakorliklar hayotida ham tub burilishlar, yangilanishlar ro'y berdi. Tadbirkorlikka keng yo'l ochilishi, ishbilarmonlar huquqlarining davlat tomonidan kafolatlanishi, ularga erkinlik berilishi, soliq va boshqa tekshiruvlarning bekor bo'lishi, konvertatsiya masalasining hal qilinishi tumanga investitsiyalar kirishi, yangi ishlab chiqarish va sanoat korxonalarini ish boshlashi, savdo, xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Natijada o'tgan qisqa muddatda tuman iqtisodiyoti yuksalib, aholi daromadi oshdi, hudud qiyofasi tubdan o'zgardirdi. E'tiborlisi, tumanning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichi yildan yilga yaxshilanmoqda.

Jumladan, 2024-yil yakuni bo'yicha tumanda yangi ishlab chiqarish, sanoat korxonalarini bunyod etish, mavjudlarining faoliyatini kengaytirish va quvvatini oshirish hisobiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish prognoz qiymati bir trillion so'mga, o'sish sur'ati esa 2023-yilga nisbatan 115 foizga oshirilishi hisob-kitob qilingan.

Buni birgina "World trading company" mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi O'zbekiston — Litva qo'shma korxonasi misolida ham ko'rish mumkin. 2020-yil tashkil etilgan mazkur qo'shma korxonada avtomobillar uchun antifriz, havo filtri va motor moyi ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan.

Yaqin yillargacha avtomobil motorini sovitish tizimi uchun ishlatiladigan oddiy antifriz mamlakatimizga xorijdan import qilingan bo'lsa, endi O'zbekistonda xorijga eksport qilinmoqda.

PAXTAKOR SANOATLASH HAYOTGAM TUMANGA AYLANMOQDA

— Mazkur loyihaning umumiy qiymati 5 million 145 ming dollarga teng. Shundan 1 millioni jamoaning shaxsiy mablag'i, 4 million 145 ming dollari xorijiy investitsiya hissasiga to'g'ri keladi, — deydi korxonada direktori Zayniddin Ibrohimov. — Mahsulotimizning 45 foizi Markaziy Osiyo, Rossiya va Litvaga eksport qilinmoqda. Bundan tashqari, mamlakat bo'yab avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodlar bilan mahsulot yetkazib berish yo'lga qo'yilgan. Korxonamiz to'liq quvvatda ishga tushirilgach, avtomobil uchun bir yilda 4500 tonna antifriz, 150 ming dona svecha simi va 50 ming dona havo filtri ishlab chiqariladi. Bundan tashqari, 5 ming tonna texnik va motor moyi tozalani, qayta ishlanadi.

Hozir korxonada 125 kishi mehnat qiladi, ko'pchiligi "Yoshlar daftari", "Temir daftari", "Ayollar daftari"da turganlardir. Bugun ularning moddiy imkoniyati yaxshilanib, ijtimoiy daftarlardan chiqarilmoqda.

"Paxtakor Gold textile" trikotaj korxonasi tumandagi yetakchi sanoat korxonalaridan. Yaqingacha faqat ip-kalava ishlab chiqarishga mo'ljallangan texnologiyaga ega korxonada

2022-yilda trikotaj mato to'qishni yo'lga qo'ydi. Endi esa matoni bo'yash va gul bosish ko'rinishida qo'shimcha qiymat yaratyapti.

— Korxonamiz nafaqat tumanimiz, balki viloyatimizning yirik sanoat korxonalaridan, — deydi korxonada direktori o'rinbosari Jamshid Meliboyev. — Loyihamizning birinchi bosqichi qiymati 25,4 milliard so'm bo'lib, yiliga 5 ming tonna ip-kalava ishlab chiqarish quvvati mavjud edi. O'tgan yil ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga 7,8 ming tonna ip-kalava ishlab chiqarildi. Loyihamizning ikkinchi bosqichida 9,6 ming tonna trikotaj mato, 1059 ming dona futbolka, 144 ming dona xalat, bolalar uchun 568 ming dona trikotaj kiyim-kechak ishlab chiqarishni rejalashtirganmiz. Mahsulotimizning asosiy qismi Rossiya, Xitoy, Polsha, Litva hamda Turkiyaga eksport qilinadi. Ayni paytda korxonamizda 175 kishi mehnat qilyapti. Loyihamizning ikkinchi bosqichi ishga tushgach, ishchilarning soni 500 dan oshadi.

Mazkur korxonaning tuman va viloyat eksport salohiyatida ham ulushi katta. Jumladan, 2021-yilda 6 million 150 ming, 2022-yilda 8 million 230 ming va 2023-yilda



8 million 850 ming dollarga teng mahsulot eksport qilingan bo'lsa, o'tgan yilda ushbu ko'rsatkich 10 million dollarga yetkazildi.

Paxtakor tumani qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish texnologiyalar taqib etilayotgan innovatsion hududdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini birlamchi yoki chuqur qayta ishlab hudud iqtisodiyotiga katta foyda keltirmoqda. Birgina moshni qayta ishlab chiqarish ixtisoslashtirilgan korxonaga xomashyo mamlakatimiz bo'yab yetkazib berilyapti. Bir yilda 10-15 ming tonna mosh qayta ishlanib, Xitoy va AQSHga eksport qilinmoqda.

Davlatimiz rahbarining o'tgan yil 8-9-aprel kunlari Jizzax viloyatiga tashrifida berilgan topshiriqlar ijrosi doirasida Paxtakor tumani kambag'allikni qisqartirish, aholining doimiy daromad manbaiga ega bo'lishiga ko'maklashishga izchil kirishilgan. Bunda, eng avvalo, oilaviy tadbirkorlik tashabbusi qo'llab-quvvatlanmoqda. Xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga harakatlantiruvchi kuch

sifatida e'tibor berilmoqda. Masalan, tumanda aholi tomonidan oqilona foydalanish, chorvachilik, quyonchilik, parrandachilik, baliqchilik kabilar yo'lga qo'yilib, qo'shimcha daromad topish manbalari yaratilyapti. Mahallalarda kichik tikuvchilik seklari qurilib, ishga tushirilmoqda. Aholiga xizmat ko'rsatish turlari rivojlanmoqda.

— Prezidentimizning Sayxunobod, Zardbor, Uychi, G'ijduvon tajribasidan kelib chiqib, aholi bandlegini ta'minlash, bo'sh ish o'rinlarini yaratish, yashash sharoitini yaxshilashga doir topshiriqlari asosida 406 kishiga jami 11 milliard so'mlik imtiyozli kredit ajratildi, — deydi Paxtakor tumani kambag'allikni qisqartirish va bandlekka ko'maklashish bo'limi boshlig'i Adham Oltiyev. — Bundan tashqari, tumanimizda "Har bir oila — tadbirkor" dasturi doirasida shu kungacha 81 fuqaroga 100 million so'mdan kredit ajratildi. Natijada ular turli sohalarda tadbirkorligini yo'lga qo'yib, har biri 10 tagacha yangi ish o'rini ochdi. Umuman, mazkur tashabbuslar

tufayli tumanimiz bo'yicha 560 ishsiz doimiy daromad egasiga aylandi.

Paxtakorning har bir mahallasi o'z salohiyatiga, iqtisodiy drayveriga ega. Bog'ishamol mahallasi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgani bois, tomorqachilik drayver yo'nalish sifatida tanlab olingan. Serdaromad issiqxonalar soni bugun mahallada 30 dan oshgan. Masalan, Jamshid Ahmedov yetakchi tadbirkor sifatida pomidor va bulg'or qalpampiri yetishtirishni keng ommalashtirgan. Shu kunlarda pishib yetilgan "Amarok" navli bulg'or qalpampiri Qozog'istonga eksport qilinmoqda. Hokim yordamchisi va mahalla raisi ko'magida tadbirkor mahallada shogirdlar birkiritildi. Shulardan biri Xurshid Ahmedov bugun tajribali dehqon va ishbilarmonaga aylandi. U tashkil etgan issiqxonada ikkinchi hosil sifatida pomidor terib olinayotgan bo'lsa, hademay bulg'or qalpampiri ham pishib yetiladi. Mahallada xuddi shunday oilaviy tadbirkorlar safini kengaytirish maqsadida joriy yilda 7 fuqaroga 100 million so'mdan kredit ajratildi. Ana shu sa'y-harakatlar natijasida ushbu mahallada tadbirkorlar soni bugun 100 nafarga yetgan.

— Ishsiz yurardim, xorijga borib ishlab niyatim ham bor edi, — deydi Xurshid Ahmedov. — Ammo e'tibor bersam, qo'shning Jamshid aka issiqxonasida pomidor, bulg'or qalpampiri yetishtirib, eksport qilyapti. Menga ham qo'shningimning ishiga havas paydo bo'ldi. Niyatimni aytganimda, "Odam qilgan ishni odam qiladi, hozir avvaligidek ovora bo'lmaysan. Mahallamizdagi hokim yordamchisiga uchrashsang, yordam qiladi. Issiqxona qursang, o'zim senga yordam beraman", dedi. Mahallamizdagi hokim yordamchisi Muhammad Botirovga uchrashdim. U menga yo'l-yo'riq ko'rsatdi. Imtiyozli kredit olishimga yordam berdi. Qolgan ishlarni qo'shningim ko'rsatmasi asosida bajarib, ikki yildan beri ushbu sohada tajriba to'plab, yaxshigina daromad topyapman. Kelajakda faoliyatimni yanada kengaytirib, ish o'rinlari yaratib, yurtimiz iqtisodiyoti yuksalishiga hissamni qo'shmoqchiman.

Ha, bugun xalqimiz manfaati yo'lidagi keng islohotlar, ulkan o'zgarishlar va bunyodkorlik ishlari yurtdoshlarimiz turmush tarzida, hududlarimizning zamonaviy qiyofasida o'z aksini topmoqda. Buni Paxtakor tumani qilingan ishlar misolida ham ko'rish mumkin. Eng muhimi, yurtdoshlarimiz qalbida egza sa'y-harakatlarga munosib hissa qo'shish, ertangi kunga qat'iy ishonch, vatanparvarlik tuyg'usi mustahkamlab bormoqda.

Farhod NE'MATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni



MARD O'G'LONLARI BISYOR EL

Boshlanishi 1-betda

Jangovar shaylik ustuvor

Mudofaa vazirligiga qarashli Buxoro garnizonida yurtimizning turli hududlaridan chaqirilgan o'g'lonlar muddatli harbiy xizmatni sidqidildan ado etmoqda. Bundan sakkitz yil avval mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini isloh etishga kirishilgandi. Natijada harbiy qismlarning infratuzilmasini talab darajasida boyitish, jangovar shayligini yanada oshirish borasida salmoqli ishlar bajarildi.

Bu yangilanishlardan mazkur harbiy qism ham chetda qolmadi. 2019-yilda qator qulayliklarni o'zida mujassam etgan, zamon talablariga to'la javob beradigan yangi binoga ko'chirildi. Harbiy qismining ko'chirilishi aholi punkti va uning atrofidagi hududlar uchun ham manfaatli bo'ldi. Hudud markaziy yo'li asfaltlandi. Piyodalar xavfsiz harakatlanishi uchun yo'laklar qurildi. Yo'l bo'yiga tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi. Yangi xizmat ko'rsatish shoxobchalari, shuningdek, do'konlar paydo bo'ldi.

Bu yerda harbiy xizmatchilar uchun ko'rkam va shinam yotoqxonalar, jangovar tayyorgarlik, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ko'nikmalarni boyitishga xizmat qiladigan o'quv bazalari barpo etildi. Qismda 1000 harbiyga xizmat ko'rsata oladigan oshxona, sport zali va yozgi dush, hammom, tibbiyot maskani, qolaversa, madaniyat majmuasi bunyod etildi. Zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalarni saqlash, foydalanish hamda xizmat ko'rsatish uchun avtosaryoy tiklandi.

Dala o'quv maydonida ham munosib sharoitlar mavjud. Ikki qavatli yotoqxonaga, o'quv binosi, oshxona, tibbiyot punkti, sport shaharchasi va yozgi madaniyat saroyi qurilishi orqali dala o'quv maydoni infratuzilmasi tubdan takomillashtirildi. Bu esa harbiy xizmatchilarning dala sharoitida jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini samarali o'tashi uchun qulaylik yaratmoqda.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini ta'minlash masalalari ham davlatimiz diqqat markazida. Prezidentimizning



xizmatchilarning 8 nafari "Qurolsoz usta", 5 nafari "Qutb yulduzi" va 6 nafari "Xavfsiz marshrut" tanlovlari sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Muddatli harbiy xizmatchilar o'rtasida o'tkazilgan mutaxassislik tanlovlari da ketma-ket ikki yil birinchi o'rin egallandi.



Shunchaki havas kamlik qiladi

— Harbiylik mas'uliyatli kasb. Unga shunchaki havas qilish kamlik qiladi. Bu sohaning mashaqqati, sinovlariga ko'ksini qalqon qilgan er yigitlarga chinakam vatan himoyachisi bo'la oladi. 12 yashar o'g'lim harbiy uchuvchilikka qiziqadi. Bu yaxshi. Unga hozirdan bu ishning mashaqqatini, pastu balandini tushuntirib boryapman. Zero, harbiylikda qattiq tartib-intizom hamisha ustuvor. Bunga esa yoshlar ham ruhan, ham jismonan tayyor bo'lmog'i dardkor, — deydi qism komandirining moddiy ta'minat bo'yicha o'rinsobari Doniyor Boynazarov.

Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan oddiy askar Dilshod Tashanov surxondaryolik. Tibbiyot bilim yurtiga o'qishga kira olmagun ham yigit ko'p o'tmay, harbiy xizmatga chaqiriladi. Mashaqqatlarga qaramay, tez orada o'z intilishi va tirishqoqligi bilan komandirlik e'tiborini qozonadi. Hozir u o'q o'tish, harbiy texnika boshqarish hadisini puxta egallagan. "Eng ilg'or mutaxassis" respublika ko'rik-tanlovida uning uch kishilik ekipaji yetakchilik qildi. Jangovar texnikani boshqarish va otuv sinovlarida tengsiz ekanini namoyish etdi. Tanlov yakunida jamoa esdalik nishoni va 1-darajali diplom bilan taqdirlandi. Yigiting o'zi kelajagini shu sohada ko'ryapti. Harbiy qismda Dilshod kabi iste'dodli askarlar ko'pligi qalbmizni faxr-iftixorga to'liradi.

Hamzabek TURDIYEV, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Mustaqilligimizning o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Qurolli Kuchlarimizni zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlash, ularning jangovar va ma'naviy salohiyatini oshirishga bundan buyon ham ulkan e'tibor qaratamiz. Lekin tinchlikni saqlash faqat harbiylarimizning ishi bo'lib qolmasligi kerak. Bu barchamizning, har bir O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchi bo'lishi shart", deya ta'kidlagan edi.

HARBIY-VATANPARVARLIK FILMLARI JASORAT VA FIDOYILIK TARG'IBOTIDIR

Har qanday armiyaning jangovar salohiyati bevosita ma'naviy yuksalish bilan ham bog'liq. Chunki vatanparvar bo'lgan inson qalbida jangovar ruh alanga oladi. Vatanparvarlik esa ma'naviy oziq, ta'lim-tarbiya mahsuli ekanini yaxshi bilamiz. Bunda, ayniqsa, adabiyot va san'atning o'ziga xos o'rni bor. Shu bois, yurtimizda yoshlar ta'lim-tarbiyasi, xususan, harbiy-vatanparvarlik ruhidagi asarlar yaratishga katta e'tibor berilmoqda.

Qolaversa, Milliy armiyamiz sharafiga, Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan tadbirlar yildan yilga yangicha ko'rinish kasb etyapti. Xususan, Kinematografiya agentligi ham bu yil bayramga munosib tufalar tayyorladi. Agentlikning "Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi" DUK tomonidan taqdim etilayotgan, Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda ishlangan hujjatli filmlar ko'pchilikka qiziqish uyg'otmoqda. Jumladan, Harbiy aviasiya instituti faoliyati haqidagi "Yangi O'zbekiston lochinlari", Qurolli Kuchlar akademiyasi haqida so'zlovchi "Ulug'vor qalb bilan qultug' saflarga" hamda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutiga bag'ishlangan "Zamonaviy harbiy institut" filmlari shu yurt fuqarosi bo'lgan har bir yurtdoshimiz qalbidagi cheksiz g'urur uyg'otishiga ishonamiz. Qolaversa, "Yangi O'zbekiston kinosolnomasi" turkumi doirasida suratga olingan ushbu filmlar ko'plab yoshlar hayotida muhim o'rin tutishiga shubha yo'q. Zero, ularning barchasi ruhlantiruvchi ta'sirga ega.

Shu kunlarda taqdim etilishi kutilayotgan "Qutqaruvchi" hujjatli filmi ham yoshlarni vatanga fidoyilik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan hamkorlikda ishlangan bu filmda quqaruvchilarning mashaqqatli faoliyati, favqulodda vaziyatlarda ko'rsatgan jasorati yorqin ochib beriladi.

Keyingi paytlarda harbiy sohaga oid filmlarni yaratishda yosh ijodkorlarning qo'llab-quvvatlanishi zamonaviy ruhdagi kino va seriallar ekran yuzini ko'rishiga xizmat qilyapti. Jumladan, "O'zbek qizi" filmda bosh rolni ijro etgan iqtidorli aktrisa Aysanem Yusupova iste'dodining yangi qiralarini yaqqol ko'rindi.

Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan Milliy Gvardiya, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda "Renessans" telekanali hamkorligida "Liger Cinema" kinostudiyasi tomonidan suratga

olingan "Va'da" nomli ko'p qismli serialda ham iqtidorli yigit-qizlar debyut roli bilan yosh aktyor va aktrisa sifatida kashf etildi. Aytish joizki, o'tgan yili Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari to'g'risida badiiy filmlar olinishi vazifasi qo'yilgandi. "Va'da" seriali ayni vazifaning ijrosi sifatida harbiy melodrama janrida suratga olindi. Mazkur film shu yo'nalishda ishlangan "Sardor" serialini eslatsa-da, tomoshabinganga yangicha ruh, kayfiyat beradi.

Serial yoshlarning harbiy ta'lim olish jarayonini, intizom va mas'uliyatni his qilishni o'rganish, jamoada ishlash ko'nikmalarini

suratga olish jarayonida kutilmagan vaziyatlarni boshdan kechirishiga to'g'ri kelgani haqida to'liqlanib gapirdi.

— Ilk bor o'zimni aktrisa sifatida sinab ko'rdim. Har bir epizodda qatnashish jarayonida vatanga bo'lgan muhabbat, mardlik, jasoratni o'zimizning hayotimizda, amalda his qildik. Ayniqsa, poligonlarda mashg'ulotlar o'tkazganimizda, butunlay boshqacha hayotga tushib qolganday bo'ldim. Umuman olganda, harbiylarning vatan oldidagi burchi shunchaki va'da bo'lmagisligi tushunib yetdim, — deydi bosh qahramonlardan biri.

Yana bir qahramon esa bosh rol ijrosi uchun taqdirlanganidan ham ko'ra to'rt oy davomida vatanparvarlik hissida tarbiyalanganidan



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

shakllantirish kabi muhim jihatlarni aks ettiradi. Shuningdek, asarda do'stlik, sadoqat, jasorat va vatanparvarlik kabi olijanob qadriyatlar ulug'lanadi. Ta'lim-tarbiyaning inson hayotidagi o'mi ham aks etadi. Bularning zamirida yoshlarni harbiy sohaga qiziqitirish turgani maqsadga muvofiq.

Asosan, o'smirlarga mo'ljallangan "Va'da" ertamiz egalari o'z tengdoshlarining harbiy hayotini ko'radi. Serialda "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi hayoti o'quvchilar personajlari yordamida ochib berilgan. 2024-yildan "Temurbeklar maktabi"ga qizlar ham qabul qilina boshlagani uchun personajlar orasida 5 nafar qiz bor. Yosh aktyor va aktrisalari

minnatdor. Zero, "Temurbeklar maktabi"da tashkil etilgan suratga olish jarayonlari uning hayotida o'zgaracha iz qoldirdi.

— Buning o'ziga yarasha qiziq va qiyin tomonlari bo'ldi, albatta. Bular haqida uzoq gapirish mumkin. Serialning qay darajada ishlanganiga tomoshabinning o'zi baho beradi, — dedi u.

Ha, asl bahoni tomoshabin beradi. Yo'qiyimziki, ularni harbiylar hayoti bilan yaqinlashtirgan, hamon e'tirof etiladigan "Sardor" seriali kabi "Va'da" ham yoshlarimiz qalbidan joy oladi.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Munosabat



Darhaqiqat, yurtimizda inson qadri ulug'lanib, ijtimoiy davlat degan yuksak maqomga munosib ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday o'zgarishlar oddiy odamlar hayotida qanday o'rin tutadi?

Inson umrini qanday yashab o'tishdan ko'ra qaysi muhitda hayot kechirishi ko'p narsani hal qiladi. Har soniyada jahon ayvoni qalqib turganini barchamiz his qilmoqdamiz. Ko'z ochib yumguncha qaysidir elat boshida qora bulutlar soya solib turgan bo'lsa, yana qaysidir o'lka odamlari tinch otgan tongini cheksiz quvonch bilan qarshi olmoqda. Qanchalab bolalar, ayollar vatansiz sarson sargardon yurgani ham ayni haqiqat. Shu o'rinda tinchlik va insoniy huquqlaridan mosuvo, ijtimoiy himoyasiz qolgan odamlar taqdiri, ularning umid bilan boqqan ko'zlarida haqida o'yash boshlaysan.

Ha, inson qayerda bo'lmasin, yaxshi yashashga haqli. U imkoniyatidan qat'i nazar, qobiliyatini yuzaga chiqaradigan muhitga muhtoj. Bugun inqirozga yuz tutayotgan, haq-huquqi oyogosti bo'layotgan mamlakatlar kam emas. Hatto rivojlangan davlatlarda ham fuqarolarning huquqi tengligi tushunchasi har xil.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda "O'zbekiston — ijtimoiy davlat" degan tamoyil belgilandi. Xo'sh, ijtimoiy davlat o'zi nima? Avvalo, ijtimoiy davlat negizida inson qadriini ulug'lash g'oyasi yotadi. Davlatimiz rahbari "Inson qadri biz uchun qandaydir inson, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri

BARCHAGA BAROBAR MEROS BU BASHAR

Prezidentimizning 2024-yil 8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida "Yana bir muhim yo'nalish — aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatamlarini qo'llab-quvvatlash uchun jami 46,5 trillion so'm mablag' sarflanib, 1 million fuqaroni kambag'allikdan chiqarish rejalashtirilmogda. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, ularning ijtimoiylashuvini oshirish va umuman, jamiyatimizda inklyuzivlikni ta'minlash bo'yicha ishlar ham yangi bosqichga ko'tariladi. Pensiya tizimini isloh etish bo'yicha ham zarur choralar ko'rildi", dedi.

deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz", deya urg'u berdi. Bu, eng avvalo, xotin-qizlar, qariyalar, imkoniyati cheklangan fuqarolarga har tomonlama ko'mak berish, muhtojlar bandligini ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoiti yaratish kabilarni kafolatlash deganidir.

Aksariyatimiz ijtimoiy davlat tomon qadam tashlanguncha bo'lgan jarayon guvohimiz. Bir vaqtlar yon qo'shimizning, mahalladoshimizning oilaviy mojaro sabab ko'maksiz qolib ketgan bolalariga duch

kelganmiz. Ular yaqinlarining uyida bo'ynini egganiga yashaganiga ko'nikdik. Ota-onasi ishlash uchun xorijga ketgan bolalar taqdiri turmush hukmiga tashlab qo'yilganiga ko'p bora duch keldik. Yoki arzimagan pensiyasini ikki-uch oylab kutgan keksalarning o'kinchini aytmaysizmi! Imkoniyati cheklangan bolasini bir o'zi katta qilgan o'zbek onalari-chi? Nogironligi sabab ko'chaga chiqishga uyayib, odamlar ko'zidan yashirinib o'tirgan ne-ne tengsurularimiz bor emasmidi? Ha, bor edi. Biz ularga safdosh bo'ldik, darddosh bo'ldik, kezi kelsa, og'riqlarini yashirdik. Ko'rib-ko'rmaslikka olishni o'rgandik.



Ular zamondoshlarimiz edi. Bu dardlarni hammamiz his qilib ko'rdik.

Yaqinda ijtimoiy xodim bo'lib ishlaydigan tanishim gurgun berdi: "Bir oilaga bordik. Ona yug'iz boshi bilan nogiron bolasiga 16 yildan buyon qarab kelar ekan. Davlat tomonidan berilgan ozgina pulni yoki saxiy odamlarning yordamini aytmasa, bolasiga bir o'zi qaragan. Mana shu yillar ichida ijtimoiy muhitdan, to'y-ma'rakalardan butunlay uzilgan. Shu farzandga umrini tikkan".

Bir insonning to'rt devor orasida 16 yil farzandiga termilib yashaganini ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a. Bu yerda inson irodasi emas, balki ko'proq fojiasi yotibdi.

Keyin o'sha ona-bolaning taqdiriga qiziqdim. Bir oz oldin tushkun kayfiyatda so'zlab bergan do'stimning yuziga tabassum yugurib gap boshladi: "Ayolga tikuv mashinasi olib berildi. U buyurtma asosida tikkan kiyimlarning xaridori ham ko'paygan. Bola bilan psixologlar obdan subhatlashdi. Tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Keyin uning rasm chizishiga qiziqishi borligi oydinlashdi. Bir necha oyda maktab-internat tarbiyalanuvchilari, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan yoshlarning ijodiy ishlari, xususan, tasviriy va amaliy san'at namunalari, dekorativ buyumlari sotuvga qo'yildi. Kimoshdi savdosida bolaning ijodiy ishi 6 million so'mga sotilibdi".

Shu o'rinda Karl Yung aytgan fikr yodimga tushdi: "Birgina odamning psixologiyasi butun xalqning psixologiyasiga muvofiq bo'ladi. Xalq nima qilsa, o'sha odam ham shu ishni qiladi va ayni vaqtda tenglik g'oyalarni

xalq ham qiladi. O'sha odamning o'zgarishidan butun millatning o'zgarishi ibtido oladi". Bugun bir insonning oyoqqa turishi, kashf etilishi, o'zgarishi ortidan butun millat o'zgarishi mumkinligini barchamiz yon-atrofimizda sodir bo'layotgan evrilishlar misolida his qilyapmiz. Endi u oila nafaqat daromadga ega bo'ladi, balki davlat va jamiyatga ham nafi tegadi.

Yurtimizda fuqarolarga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar miqdori va turini ko'paytirish borasida qator tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, Ijtimoiy himoya milliy agentligi ochilgani katta voqea bo'ldi. Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi. Barcha hududlarda "Inson" markazlari ochilib, ijtimoiy xodimlar mahallalarda aholiga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmat ko'rsatyapti.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida nogironligi bo'lgan shaxslarga alohida e'tibor qaratilgan. Buni amalda ta'minlash maqsadida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 50 ga yaqin davlat va ijtimoiy xizmatlar joriy etilgan. Shuningdek, ta'lim, bandlik, ijtimoiy va boshqa sohalarda to'laqonli qatnashish uchun imkoniyat yaratilgan.

Albatta, bu imkoniyatlarning mevasini ham ko'rdik. Millatimiz faxri bo'lgan parolimpiyachilarni matonat, sabr va iroda timsoli sifatida jamiyatimizga buyuk ilhom manbai bo'lib xizmat qilganini e'tirof etish kerak. Ularning xalqaro maydondagi yutuqlari buni isbotlaydi va jamiyatda tenglik g'oyalarni

qo'llab-quvvatlaydi. 2024-yil 15-dekabrda boshlab sport bilan shug'ullanishni istagan nogironligi bo'lgan shaxslarga "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan davlat mulkida bo'lgan jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va sport inshootlarida bepul sport bilan shug'ullanish uchun yo'llanma beriladi.

— Ta'lim muassasalari va Muruvvat uylarida 2025-2026-yillarda sport inshootlari quriladi, sport jihozlari bilan ta'minlanadi. Sport bilan shug'ullanishni istagan imkoniyati cheklangan shaxslar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazidan yo'llanma olib, bepul shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratiladi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi mutaxassisi Gulnoza Bo'ronova. — Bundan tashqari, ko'zi ojizlar va harakat-tayanch tizimi xastaligi bilan og'rikan shaxslarga hamroh guruhlari tuziladi. Bundan asosiy maqsad nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishdan iborat.

Sog'lom jamiyat kelajak poydevoridir. Bugun biz bilan teng huquqli bo'lgan imkoniyati cheklanganlar ham yurt kelajagi uchun qilgan xizmatlarini olini harflar bilan yozishiga aminmiz. Buni parolimpiyachilar ham isbotladi. Endi shaharsozlik nomalari va qoidalar talablaridan kelib chiqib, ko'chalar nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz harakatlanishiga moslashtirildi. Natijada imkoniyati cheklanganlar ham barcha bilan teng harakatlanoladi. Shu o'rinda shoirim bir misrasi yodimga tushdi: "Barchaga barobar meros bu bashar". Bugun jamiyatda neki imkoniyat yaratilayotgan bo'lsa, ijtimoiy ahvoli, jismoniy holatidan qat'i nazar, jamiyatning barcha a'zolariga birdek xizmat qilishi shart. Yangi O'zbekiston hamma uchun teng huquqli, adolati va munosib hayot mamlakati o'laroq bu ishda o'z yo'li va maqsadini belgilab olgan.

Adolatga asoslangan milliy davlatchilik madaniyatimiz hamda an'alarimizning mustahkam ildizlari jamiyatda inson manfaatlarini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi. Qisqasi, yangi O'zbekiston an'ana va qadriyatlariga sodiqdigi, ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etish va har bir insonning o'zini qo'llab-quvvatlangan hamda himoyalangan deb his etishi uchun zarur muhit yaratishga intilmoqda.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Mulohaza

Kitob — insonning do'sti, bilim va tafakkur manbai, xazinalar kaliti. Mutolaani odatga aylantirgan inson yuksak tafakkuri, bilimi, dunyoqarashi va teran fikrlashi bilan boshqalardan ajralib turadi. Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy "Insonni kamolotga yetkazuvchi narsalardan biri kitobdir", deganda kitobni ma'naviy kamolot va tarbiyaning asosiy manbai sifatida ko'radi. Jaloliddin Rumi "Kitob, ilmu ma'rifat bo'lmasa, insonning axloqi va dunyoqarashi mukammal bo'lmaydi", deydi. Buyuk Sitseron "Kitobsiz xona jonsiz tanaga o'xshaydi", degan tashbehi keltirgan bo'lsa, taniqli adib Fransua Volterning "Kitoblar — inson ruhiyatining qo'riqchilari", degan fikri zamonlar osha ohorini yo'qotmay kelmoqda.



BOLANI KITOB O'QISHGA MAJBURLAB BO'LMAYDI

Bunda ota-ona namuna ko'rsatishi lozim



Sarvar NAZARQOSIMOV, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

poydevorini yaratish borasidagi vazifalarni belgilab berdi.

Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun dastlabki muhim qadamlardan bo'ldi. Unga ko'ra, kitoblarni nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, yoshlarning kitobga qiziqishini oshirish maqsadida maxsus komissiya tashkil qilindi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitob o'qish, mutola madaniyatini oshirishda mustahkam zamin yaratadi.

Shu o'rinda kitobxonlik madaniyati yuqori davlatlar tajribasini o'rganish ham dolzarb masala. Bugun ta'lim tizimi bilan dunyoda karvonboshilikni bermay kelayotgan Finlyandiya eng kitobxon mamlakatlardan biridir. Bu yerda kitob o'quvchilar soni aholining 90 foizidan oshadi. Mamlakat ommaviy kutubxonalar tizimi samarali faoliyat yuritadi — har yuz ming kishiga 13-15 ta kutubxona to'g'ri keladi. Shu bois, mamlakatning oliy ta'lim va umumiy savodxonlik ko'rsatkichi boshqa davlatlarimizdan ancha baland. Internet orqali kitob sotib olish ham keng yoyilgan.

Janubiy Koreyada ham kitob o'qishga katta e'tibor beriladi. Mamlakatdagi har bir fuqaro bir yilda o'rtaacha 7-9 ta kitob o'qishi qayd etilgan. Janubiy Koreyada ikki yarim mingdan ortiq ommaviy kutubxona faoliyat yuritadi. Raqamli texnologiyalar kitobga qiziqishni oshirib, elektron kitobdan foydalanuvchilar soni ham ortib bormoqda. Koreyada raqamli kitoblar va platforma orqali kitob sotib olish juda ommalashgan. Ayniqsa, yoshlar



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



orasida smartfonlar orqali elektron kitoblarga kirish qulay bo'lib, kitob sotuvi shu yo'nalishda rivojlangan. Kyobo Bookstore va Yes24 kabi yirik kitob do'konlari tarmog'i Janubiy Koreyada kitob savdosi bo'yicha katta tamolardan.

Yaponiyada ham kitobxonlik, badiiy adabiyot mutolaasi juda ommalashgan. Har bir kishi yil davomida o'rtaacha 10-15 ta kitob o'qiydi. Mamlakatda minglab kitob do'koni mavjud.

Yaponiya kitob bozori manga (yapon komiksleri) orqali juda ommalashgan. Manga kitoblari sotuvi davlatdagi umumiy kitob bozorining katta qismini tashkil qiladi. Tokiodagi Kinokuniya kabi yirik kitob do'konlari va onlayn savdo platformalari kitoblarning keng tanlovini taklif qiladi. Har yili Yaponiyada millionlab nusxa kitob nashr etiladi va yoshidan qat'i nazar, aholi muntazam kitob sotib oladi.

Google Books kabi platformalar kitoblarni oson xarid qilish imkonini beradi.

Dunyo bo'yab kitobxonlik madaniyati rivojlangan davlatlar turli kutubxona tizimlari, raqamli platformalar, ta'lim strategiyalari va milliy an'analar orqali yoshlarning kitobga qiziqishini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. Mazkur tajribalardan kelib chiqib, mamlakatimizda kitobxonlikni yanada rivojlantirish uchun, avvalo, ommaviy kutubxonalar tizimiga yoshlar va aholi oson kirishi uchun imkoniyat yaratish zarur.

Maktab va oliy o'quv yurtlarida kitobxonlikka qaratilgan maxsus dasturlar va loyihalarga doir ishlarni jadallashtirish, kitobxonlik festivallari, kitob yarmarkalari va adabiy musobaqalarni ko'proq o'tkazib, yoshlarning mutolaaga qiziqishini oshirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, yoshlar orasida elektron kitoblar yoki audiokitoblar ommalashuviga sharoit yaratish, ijodkorlar va nashriyotlarga subsidiya hamda grantlar ajratib o'q'lab-quvvatlash va yangi asarlar yaratilishiga keng imkoniyatlar oshirish uchun shu juda muhim.

Odamlar bilan kitob mutolaasi haqida suhbatlashsak, ko'pchilikdan "Bolam kitob o'qimaydi, kitob o'qishga majburlasam ham natija bo'lmayapti", degan so'zlarni eshitamiz. To'g'ri, bolalarni majburlab kitob o'qitish qiyin masala. Xalqimizda "Qush uyusida ko'rganini qiladi" degan naql bor. Shuning uchun, avvalo, ota-onalarning kitob mutolaasiga munosabatini o'zgartirish kerak. Ular shaxsiy namuna ko'rsatib, oila davrasida kitob o'qisa, farzandlar ham oildagi mutola madaniyatiga muhabbatdan kuch olib, albatta, kitobxon bo'ladi.

Psixologlarning fikricha, ota-onalarning farzandi bilan birga kitob o'qishi ular o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi, oila jipsligini ta'minlaydi. Shunday ekan, ajdodlarimizning oilaviy kitob o'qish an'anasi tiklab, rivojlantirishimiz shart.

O'rta asrlarda ikkita renessansga beshik bo'lgan mamlakatimiz zaminida kitob mutolaasi bo'yicha dunyoga o'mak bo'lgani bejiz emas. Biroq XVI-XIX asrlardagi taxt talashishlar, diniy mutaassiblik, muttasil urushlar xalqimizni kitobxonlikdan chalg'itgan bo'lsa, Chor Rossiyasi istilosida ham sobiq sovet ittifoqining madaniyatimizdan mahrum qilishga harakati o'lkamizni boy ma'naviyatdan ayirdi. Bugun esa ko'pchilik, ayniqsa, yoshlar ijtimoiy tarmoqlarga andarmon bo'lib, kitob o'qishdan uzoqlashmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarda kitobga mehr uyg'otish, ulami har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda mutola madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari ilm ahli bilan uchrashib, odamlarni ilmsizlikdan olib chiqish, xalqimizning boy tarixidan ruhiy quvvat olgan holda Uchinchi Rennessans

Qashqadaryo vohasidagi eng so'lim, tabiati o'zgacha manzillardan biri Shahrisabz tumanidagi tog' etagida joylashgan Miraki qishlog'i hisoblanadi. O'tgan yili bu hududga bejiz turizm qishlog'i maqomi berilmadi. Boisi, qishloqqa doimiy ravishda dam olish uchun keluvchilar oqimi to'xtamaydi. Ayniqsa, yozning jazirama kunlarida soya-salqinga oshiqqanlar safi ancha ko'payadi.

Tashrif buyuruvchilar orasida nafaqat mahalliy, balki Buxoro, Xorazm, Navoiy kabi viloyatlardan kelgan mehmonlarni ham uchratish mumkin. Lekin muammoli tomoni, shunday paytlarda olisdan yo'l yurib kelgan kishilar bu joylarda yetarli shart-sharoitlar bo'lmagani, infratuzilma yaratilmagani, kerakli xizmatlar yo'lga qo'yilmagani bois, gohida ortiga qaytib ketgan. Kamida ikki-uch kun dam olishni niyat qilganlar ham qulay bo'lmagani uchun nari borsa bir kunda safarini yakunlashga majbur bo'lgan.

Baland tog' tepaliklaridan boshlangan irmoqlar bir-biriga qo'shilib, kattagina daryo hosil qilganча pastlikka, to'g'ridan to'g'ri Miraki suv omboriga quyiladi. Kattagina suv ombori Miraki qishlog'ining tepa qismida joylashgan. Suv omboridan chiqqan ortiqcha suv daryo orqali qishloqning o'rtasidan oqib o'tadi. Bu o'z-o'zidan daryoning ikki qirg'og'idagi salqin bog'rog'larga hayot baxsh etadi. Ikki tomoni daraxtzordan iborat hududda shu paytga qadar mahalliy aholi tomonidan imkon darajasida dam olish maskanlari tashkil qilingan. Lekin bugungi kun talabiga javob bermasdi. Hattoki biror zamonaviy mehmonxonaga ham mavjud emasdi.

Ko'hna va hamisha navqiron Kesh azaldan o'zining tarixiy obidalari, go'zal tabiati, purviqor tog'lari bilan sayyohlarni maftun etib kelgan, — deydi Qarshi shahrida istiqomat qiluvchi Farhod Norqulov. — Biz ham doimo biror mehmon keladigan bo'lsa, albatta, Shahrisabzni tomosha qildirishga, so'lim tabiatidan bahramand qilishga olib boramiz. O'zimiz ham yoz faslida ko'proq



soya-salqin joylarga chiqishga harakat qilamiz. Oxirgi marta bundan ikki yil oldin Mirakiga borgandik. Rosti, bir hafta daryo bo'yida hordiq chiqarishni rejalashtirgandik. Yaqin tanishimning tavsiyasi bilan o'sha yerdagi dam olish maskanidan joy oldik. Ikkitagina oddiy supa qilingan. Boshqa deyarli sharoit yaratilmagan. Joy ancha yaxshi, salqin. Kelgan kishining ketgisi kelmay qoladi. Ammo xizmatlari mehmonlarni qoniqtirmaydi. E'tiroz bildirsangiz, xohlamasangiz, boshqa joyga boring qabilida ish tutishdi. Kayfiyatimiz tushib, ikki kunda ortga qaytishga majbur bo'ldik. Aslida, barcha imkoniyatlarni yaratib qo'yishsa, o'zlariga yaxshi daromad-ku. Kunlik hisoblab,



pulini olishadi. Shundan so'ng u tarafdagi bormay ketdik. Eshitishimga qaraganda, keyingi paytda Mirakida bir qator ishlar olib borilayotgan ekan. Demak, sharoitlari endi ancha o'zgarsa kerak.

Markazdagi yirik loyihalar o'z poyoniga yetkazilgach, kelgusida nafaqat mahalliy, balki xorijlik sayyohlarning tashrifi ham ortishi kutilmoqda. Buning uchun barcha zarur sharoit va imkoniyatlar yaratiladi.

Soha mas'ullarining ta'kidlashicha, yuqoridagi qarorda belgilanganidek, mazkur manzilda tijorat banklari hamda tadbirkorlik subyektlari loyihalari ham amalga oshirilayotir. Shuningdek, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish choralari ko'rilmoqda.

Misol uchun, "O'z sanoatqurilishbank" ATB tomonidan Shahrisabz turistik markazi hududidan 2 ta lot uchun 5,05 gektar maydon aukson orqali

— Viloyatimizda turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim ishlar amalga oshirilmoqda, — deydi Qashqadaryo viloyati hokimligi hududidagi Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish departamenti rahbari Javohir Tojiyev. — Birgina Miraki mahallasining o'zida qilinayotgan ishlarning salmog'i ancha yuqori. Prezidentimizning tegishli qaroriga ko'ra, o'tgan yili dastlabki harakat boshlangandi. Hozirda ayrim obyektning qurilish ishlari yakunlanish arafasida. Zamon talablariga ish yoshida buniyod etilayotgan inshootlarning barchasi, asosan, sayyohlarga qulaylik yaratish istagida qilinmoqda. Maqsadimiz — bu yerga hordiq chiqarish yoki tabiati tomosha qilish uchun kelgan har bir mehmon yaxshi taassurot olib ketishi. Bilamizki, bugun dunyo sayyohlik tizimida yangidan yangi loyihalar joriy etilmoqda. Xizmatlar sifatini oshirishga ham e'tibor qaratilmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, bizda ham borada chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Aniq rejalar asosida ish olib borilmoqda.

Markazdagi yirik loyihalar o'z poyoniga yetkazilgach, kelgusida nafaqat mahalliy, balki xorijlik sayyohlarning tashrifi ham ortishi kutilmoqda. Buning uchun barcha zarur sharoit va imkoniyatlar yaratiladi.

Soha mas'ullarining ta'kidlashicha, yuqoridagi qarorda belgilanganidek, mazkur manzilda tijorat banklari hamda tadbirkorlik subyektlari loyihalari ham amalga oshirilayotir. Shuningdek, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish choralari ko'rilmoqda.

xarid qilingan. Bunda birinchi lotda pudratchi tashkilot "Gold Step invest" MCHJ tomonidan 408 o'rinni mehmonxonaga buniyod etilmoqda. Hozirda ushbu binoning qurilish ishlari deyarli oltmish foiz bajarildi. Ikkinchi lotda esa 300 o'rinni xostel hamda bitta restoran, sport zali va bolalar maydonchasi qurilish ishlari yakunlanish arafasida.

"Asakabank" AJ tomonidan esa mazkur hududda 2 ta lot uchun 4,6 gektar maydon aukson orqali xarid qilingan. Bunda pudratchi tashkilot tomonidan 408 o'rinni 4 qavatli mehmonxonaga hamda savdo-ko'ngilochar kompleksi va restoran loyihasi qo'ra ikki qavatli inshoot barpo etilmoqda. "O'zmilliybank" AJ tomonidan dor yo'li, avtoturargoh, zamonaviy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish majmuasini tashkil etish uchun 1,3 gektar yer sotib olingan. Ayni paytda loyiha qurilish ishlari olib borilmoqda.

Shu bilan birga, hududda "Hisor maxsus qurilish invest" MCHJ tomonidan 10 kilometr masofaga salomatlik, piyoda va velosiped yo'laklari hamda osma ko'priklar o'rnatildi.

Bundan tashqari, Qamashi tumani hududidagi umumiy maydoni 58,6 gektar bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasida "Maydanak baland tog'" turistik markazini tashkil etish ham belgilangan. Ayni paytda ushbu markaz rejayi tasdiqlanib, tez orada qurilish ishlari uchun yer maydonlari aukson orqali savdoga chiqarilishi ko'zda tutilgan. Yaqin vaqt oraliqida Qamashi tumanida ham turizm obyektlarini barpo etish ishlari boshlab yuboriladi.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri